

JAHONDA MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA UNING INTEGRATSIYALASHUVI.

Xasanova Zebo Iskandarjon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Tel. 94.110-38-33

zeboxasanova445@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta'limning dunyodagi rivoji, uning qulayliklari, afzalliklari va turli davlatlar tajribasi yoritilgan. Mavzuda masofaviy o'qitishning qanday paydo bo'lgani, qaysi olimlar uni boshlab bergani ham sodda tarzda tushuntiriladi. Shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSh, Yevropa, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarda masofaviy ta'lim qanday rivojlangani misollar bilan berilgan. Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida bu yo'nalishning qanday joriy etilgani, qaysi raqamli platformalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgani va gibrid ta'limning kengayib borayotgani ham ko'rsatilgan. Umuman, maqola masofaviy ta'limning bugungi kundagi ahamiyati, imkoniyatlari va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rnini sodda va ravon tarzda ochib beradi. Maqola sōngida ortiqcha murakkablikni bartaraf etilishi, Masofaviy ta'lim yanada rivojlanishi va yanada samaraliroq bōlishi, chekka hududlardagi yoshlar va pedagoglar qulayliklarini yanada oshirish uchun yangilik kiritish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, raqamli platformalar, gibrid ta'lim, elektron resurslar, ta'limning moslashuvchanligi, internet texnologiyalari, pedagogik innovatsiya, ta'lim sifati, O'zbekiston ta'lim tizimi

Kirish

Hozirgi kunda dunyoda masofaviy ta'lim tez rivojlanib, ko'plab davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti o'quv jarayonini qulay, tejamkor va samarali shaklga keltirmoqda. Masofaviy ta'lim o'quvchilarga istalgan joydan turib ta'lim olish, darslarda qatnashish va o'z bilimini mustaqil oshirish imkonini beradi. Jahon

tajribasi shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish an'anaviy ta'limga teng darajada samarali bo'lib, ta'limning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ushbu tizim ko'proq insonlarni ta'lim bilan qamrab olish, o'quv jarayonini moslashuvchan qilish va imkoniyatlarni tenglashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Masofaviy ta'lim- muayyan nuqtadan Axborot kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniya va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishda an'anaviy hamda innovatsion shakl metod vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yonaltirilgan ta'lim. [1]

Masofaviy ta'limning qulay tomoni shundaki, u har bir o'quvchiga o'ziga mos va qulay vaqtda o'qish imkoniyatini beradi. Ushbu tizim vaqt va masofa cheklolarini kamaytirib, ta'limni kengroq auditoriyaga yetkazadi. Hozirda ko'plab davlatlarda masofaviy kurslar soni ko'payib, raqamli platformalar takomillashib bormoqda. Bu esa ta'lim jarayonida mustaqillik, moslashuvchanlik va erkinlikni kuchaytiradi. Natijada masofaviy ta'lim ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Masofaviy ta'lim ilk bora 1728-yilda amerikalik professor Kaleb Fillips tomonidan joriy qilindi. U Boston gazetasiga talabalarni maktub almashish orqali mamlakatning istalgan nuqtasida stenografiya bo'yicha o'qishga jalb qilish bo'yicha murojaat qildi. Ayni shu hodisa masofaviy ta'lim va pedagogika tarixidagi keskin burilishlarning ibtidosi bo'ldi. Keyinroq ingliz tili o'qituvchisi va noshir Isaak Pitman hozirda Pitman stenografiyasi sifatida mashhur bo'lgan stenografiya tizimini ishlab chiqdi. U buni birinchi marta 1837-yilda Stenographic Soundhandda taklif qilgan. U masofaviy ta'lim rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar sirasiga kiradi. 1840-yilda u har bir talabaga darslar ilova qilingan xatlarni pochta orqali jo'natdi. Bu tizim ham talaba, ham o'qituvchi uchun birday qulay edi. Chunki bu tizimda ta'lim olish vaqti chegaralanmagan, talabalar ishdan ajralmagan holda o'ziga qulay vaqt va makonda topshiriqlarni bajarishlari, natijalarni o'qituvchiga taqdim etishlari mumkin edi. Bu jarayon talabalarni shahar markazida joylashgan universitetga qatnash, o'qish harajatlari, turar joy kabi muammolardan xalos etgani bilan ham e'tiborlidir. Ta'limdagi bu yangilanishlar boshqa pedagoglarni ham ilhomlantirdi va yangiliklar yaratishga bo'lgan ishtiyoqini oshirdi. Masofaviy ta'limdagi

yutuqlar natijasida 1856-yilda C.Tusen va G.Lanchenshteynlar Berlinda sirtqi ta'lim institutiga asos soldilar. [2].

Mavjud jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish universitetlarda o'qitishga qaraganda taxminan 40 foiz arzonroq bo'lishi tasdiqlangan. So'nggi paytlarda masofaviy o'qitish kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarining yuqori salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu ta'lim shaklini yanada samarali qiladi.

Hozirgi kunda jahonda masofaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda yetarli tajriba mavjud. Buyuk Britaniyaning an'anaviy universitetlarida boshqaruv sohasi bo'yicha magistr darajasiga mo'ljallangan dasturning 50 foizi masofadan o'qish orqali amalga oshirilmoqda. Ispaniyadagi Masofaviy O'qitish Milliy Universiteti ushbu davlatdagi eng yirik oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi; uning tuzilmasiga Ispaniya hududida joylashgan 58 ta o'quv markazi va davlatdan tashqarida joylashgan 9 ta markaz kiradi. Fransiyada bu soha bo'yicha dunyoning 120 davlatidagi 350 000 foydalanuvchini ta'minlaydigan masofaviy o'qitishda Milliy Universitet yetakchilik qiladi. Buyuk Britaniyaning Ochiq Universiteti eng katta oliy ta'lim muassasasi bo'lib, u masofaviy o'qitish tizimini jadal tarzda qo'llamoqda.[3]

Yevropada: masofaviy ta'lim 19-asr oxirida maktublar orqali boshlangan. Talabalar uyida mustaqil o'qib, imtihonlarni yozma tarzda topshirgan. 20-asrning o'rtalarida radio va televideniye orqali darslar boshlandi, ayniqsa chekka hududlardagi talabalar uchun. 1990-yillarda internet kirib kelishi bilan universitetlar onlayn kurslarni yo'lga qo'ydi, shu davrda EUROCALL va EADTU kabi tashkilotlar masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatladi. 2000-yillardan MOOC platformalari, videodarslar va interaktiv onlayn kurslar kengaydi. Hozirgi kunda sun'iy intellekt, mobil ilovalar va raqamli laboratoriyalar yordamida ta'lim yanada interaktiv va samarali bo'lgan.

Hindistonda: masofaviy ta'lim 1960-yillarda boshlanib, dastlab talabalarga darslik va topshiriqlar pochta orqali yuborilgan. Talabalar uyida mustaqil o'qib, faqat imtihonda qatnashgan. Bu "ekstern" yoki maktublar orqali o'qitish rejimi deb ataladi. 1985-yilda Indira Gandhi National Open University (IGNOU) ochilib, Hindistonda masofaviy ta'limning asosiy tizimi yaratildi. 1990-yillardan boshlab radio, televizor va internet orqali

darslar kengaydi. SWAYAM platformasi orqali talabalarga o'z hududidan turib turli kurslar va universitetlardan bilim olish imkoniyati berildi. Hozirgi kunda Hindistonda masofaviy ta'lim videodarslar, onlayn testlar, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar yordamida samarali amalga oshirilmoqda.

Xitoyda: masofaviy ta'lim 1980-yillarda radio va televideniye orqali boshlanib, chekka hududlardagi talabalar uchun imkon yaratdi. 1996-yilda Tsinghua universiteti masofaviy ta'lim g'oyasini ilgari surdi. 1998-yilda Xitoy ta'lim vazirligi to'rtta universitetni masofaviy ta'limni sinab ko'rish uchun tanladi. 1999-yilda "Central Radio va Televideniye Universiteti" (hozirgi Open University of China) masofaviy ta'limning rivojlanishida katta rol o'ynadi. 2000-yillardan boshlab oliy ta'lim muassasalari onlayn kurslar va platformalarni joriy qildi, 2013-yilda esa XuetaoX MOOC platformasi ochilib, masofaviy ta'limni ommaviylashtirdi. So'nggi yillarda, xususan COVID-19 pandemiyasidan keyin, onlayn darslar kengayib, sun'iy intellekt va mobil ilovalar yordamida ta'lim yanada interaktiv shaklga keldi.

Germaniya va Ispaniyada Masofaviy Ta'limning Rivojlanishi

Germaniyada: masofaviy ta'lim 1969-yilda FernUniversität in Hagen ochilishi bilan boshlandi. Universitet butun mamlakat bo'ylab talabalarga uyda o'qish va imtihonlarni topshirish imkonini berdi. 20-asr oxiri va 1990-yillarda radio, televideniye va kompyuter texnologiyalari keng qo'llanila boshlandi. Internetning kengayishi bilan FernUniversität va boshqa universitetlar onlayn kurslar va elektron darsliklarni joriy qila boshladi.

Ispaniyada: masofaviy ta'lim 1972-yilda UNED universitetining tashkil etilishi bilan boshlandi. Dastlab talabalarga darsliklar pochta orqali yuborilgan, keyinchalik radio va televideniye orqali darslar olib borilgan. 1990-yillarda Universitat Oberta de Catalunya (UOC) ochilib, to'liq onlayn ta'lim tizimini yo'lga qo'ydi. 2010-yillardan boshlab internet va elektron kurslar masofaviy ta'limni kengaytirishga yordam berdi. COVID-19 pandemiyasidan keyin talabalarning ko'pchiligi gibril (uyda + onlayn) shaklda ta'lim olishni boshladi. Shu bilan masofaviy ta'lim Ispaniyada yanada ommalashdi va samarali bo'ldi.

AQShda: masofaviy ta'lim 20-asrning o'rtalarida maktublar orqali boshlanib, keyinchalik radio va televideniye orqali rivojlana boshladi. 1971-yilda The Open University of the United States va boshqa onlayn universitetlar faoliyat boshladi. 2000-yillardan so'ng internet keng tarqalishi bilan Coursera, edX kabi MOOC platformalari ishga tushdi va masofaviy ta'lim butun mamlakat bo'ylab ommalashdi.

Buyuk Britaniyada: masofaviy ta'limning peshqadami – Open University bo'lib, u 1969-yilda tashkil etildi. Boshlanishda talabalarga darsliklar pochta orqali yuborilib, uyda o'qish imkoniyati berildi. 1980-yillardan boshlab radio, televideniye va kompyuter texnologiyalari qo'llanila boshlandi. 1990-yillardan so'ng internet orqali kurslar joriy qilindi, 2000-yillardan MOOC va interaktiv onlayn platformalar kengaydi. Hozirgi kunda AQSh va Buyuk Britaniyada masofaviy ta'lim interaktiv, onlayn va ommaviy bo'lib, talabalar istalgan joydan ta'lim olish imkoniga ega. Bu tizimlar universitetlar va texnologiya kompaniyalari hamkorligida yanada rivojlanmoqda. Masofaviy ta'limning Asosiy xususiyatlari: Internet orqali o'qitish: Talabalar darslarda Zoom, Google Meet, Moodle, MS Teams kabi platformalar orqali ishtirok etadilar. Moslashuvchan vaqt va joy: Talaba o'ziga qulay vaqtda dars materiallarini o'rganishi mumkin. Elektron resurslar: Darsliklar, videodarslar, topshiriqlar, testlar hammasi elektron shaklda taqdim etiladi. Onlayn nazorat: Oraliq va yakuniy imtihonlar onlayn shaklda o'tkaziladi.[4]

O'zbekiston Ta'lim Tizimida Masofaviy Ta'limning Rivojlanishi va Integratsiyalashuvi

O'zbekiston ta'lim tizimida masofaviy ta'lim so'nggi yillarda jadal rivojlanib, an'anaviy ta'lim bilan integratsiyalashmoqda. Masofaviy ta'limning qonuniy asoslari 2017-yilda Ta'lim to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar bilan mustahkamlandi. Shu qonun masofaviy va onlayn ta'lim shakllarini rasmiy tan olgan, baholash tizimi va sifat nazoratini belgilagan.

Texnologik rivojlanish jarayonida maktablar va oliy ta'lim muassasalari Elektron Ta'lim Platformasi (E-Platforma) va Ziyonet kabi raqamli resurslardan foydalanishni boshladi. Pandemiya davrida onlayn darslar kengayib, video darslar, elektron testlar va

kutubxonalar yordamida ta'lim jarayoni samarali bo'ldi. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalari masofaviy ta'limni an'anaviy dasturlar bilan uyg'unlashtirib, gibriddagi o'qitish tizimini tatbiq qilmoqda. Ba'zi universitetlar xorijiy masofaviy universitetlar bilan hamkorlik qilib, onlayn kurslar va sertifikat dasturlarini ham taqdim etmoqda. Masofaviy ta'limning integratsiyalashuvi talabalarga moslashuvchan ta'lim olish imkonini kengaytirib, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion metodlarni tatbiq etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga texnologik resurslar va interaktiv platformalar yordamida o'quv jarayoni yanada samarali va zamonaviy shaklga keltirilmoqda.

Bugungi kunda Masofaviy ta'lim tizimiga biroz yangilik kiritish zarur deb hisoblayman bulardan: Raqamli o'quv platformalarini birlashtirish hozir mavjud platformalar (ZiyoNet, E-Platforma, EduMarket va boshqalar) yagona tizimga jamlanganda o'quv jarayoni soddalashkan bōlardi. Bu esa ortiqcha murakkablikni oldini olgan va vaqtni samaradorligini oshiradi.

O'qituvchilar uchun maxsus dastur ishlanmasi– barcha pedagoglarga zamonaviy onlayn o'qitish metodlari, platformalardan foydalanish, videodars tayyorlash bo'yicha amaliy treninglar joriy qilinsa ancha ta'lim tizimi yaxshi tomonga ōzgaradi.

Chekka hududlar uchun mobil ta'lim markazlari – internet sust bo'lgan joylarda Wi-Fi markazlari, planshetlar va mini-studiyalar bilan jihozlangan maxsus ta'lim mashinalarini joriy etilsa buning natijasida yurtimizda ōqimishli yoshlar soni yanada oshadi.

O'quvchilar uchun bepul raqamli kontent banki – barcha fanlar bo'yicha videodarslar, testlar, audio materiallar va elektron kitoblarni bir joyda to'plansa bu ortiqcha ovvoragarchilikni oldini olib ancha qulaylik tug'diradi.

Masofaviy ta'lim sifatini baholash tizimini yaratish. Bu haqqoniylikni ta'minlaydi va talabalar bilim sifatini oshiradi.

Xulosa

Hozirgi davrda masofaviy ta'lim dunyoda ham, O'zbekistonda ham tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'tkazilgan tahlillar bu tizimning qulayligi, keng qamrovliligi va

ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli resurslarni boyitish va pedagoglarning malakasini oshirish kelgusida yanada samarali natija beradi. Shu bois, masofaviy o'qitish O'zbekiston ta'lim tizimining muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAR ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B. Umumiy pedagogika: Pedagogika nazariyasi. – 2021. – 108-bet.
2. Usmanov N.M. Masofaviy ta'limning rivojlanish tarixi. – 2024. – <http://www.newjournal.org/>
3. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofaviy o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – 2009. – 93-bet.
4. Mentalaba ilmiy-ta'limiy platformasi. – <https://mentalaba.uz>